

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



МА’ЛУМОТЛАРНИ СТАТИСТИК КО’РСАТКИЧЛАРДА ИФОДАЛАШ (QISHLOQ XO’JALIGI MAHSULOTLARI MISOLIDA)

Qurbanboyev Shaxriyor

Guliston Davlat universiteti talabasi

Valijonov Ibrohim

Guliston Davlat universiteti talabasi

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada statistik ko`rsatkichlar va ularning turlari haqidagi ma`lumotlar yoritilgan. Maqola materiallarida statistik ko`rsatkichlarning vazifalalri va qayerlarda qo’llanishi haqida ma`lumotlar keltirib o`tilgan.

Kalit so‘zlar: Statistika, guruhlash, mutlaq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, taqqoslash, zahiraviy ko`rsatkichlar.

Kirish


Statistik ko`rsatkich - bu ommaviy hodisa va jarayonning me’yori, ya’ni uning sifat va miqdor birligini ifodalash hisoblanadi. Statistik ko`rsatkichlar deb ma’lum makon va zamon sharoitida ommaviy hodisa va jarayonlarning holatini, rivojlanishini, tuzilishini, o’zaro bog’lanishlarini ifodalovchi me’yorlar yuritiladi. Va bu maqolada statistik ko`rsatkichlarning turlari va mohiyati yoritilgan.

Tahlil va natijalar

Statistik ko`rsatkichlar miqdori raqamlar bilan ifodalanadi. Miqdorlar mohiyatiga ko‘ra mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlarga bo‘lishi mumkin. Mutloq ko`rsatkichlar o’rganilayotgan hodisalar va ularning belgilarini bir xilligini, monandligini, o’xhashligini ifodalaydi. Ular hodisalar va ularning belgilarining ko’lami, soni, hajmi, darajasi makon va zamonda taqsimlanish shaklida namoyon bo’ladi. Mutloq miqdorlar hodisalar to’plami yoki bir butun qismini ta’riflashiga qarab makro va mikro ko`rsatkichlarga, olish usuliga asosan oqim va zahiraviy ko`rsatkichlarga bo’linadi. Oqim ko`rsatkichlari ma’lum davr davomida sodir bo’lgan hodisalarning absolyut miqdorini ta’riflaydi, zahiraviy ko`rsatkichlar esa ularning muayyan holatini ayni fursatda mavjud bo’lgan miqdorini aniqlaydi. Absolyut miqdorlar natura va shartli natura birliklarida va pulda ifodalanadi. Mutloq miqdorlar o’rganilayotgan voqyelik qanday tezlikda rivojlanayotganligini, uning takrorlanish intensivligini aniqlamaydi. Buning uchun nisbiy miqdorlar qo’llanadi. Ular qiyosiy tahlilni chuqurlashtirish va tafakkurimizni boyitish uchun xizmat qiladi. Taqqoslash statistik ko`rsatkichlarni shakllantirishning muhim usulidir. U solishtirilayotgan hodisalar va belgilarning o’xhashlik tomonlari va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Taqqoslashning turli



yo'llari va shakllari mavjud. Xususan O'zbekiston Respublikasining 2022 yil dastlabki yarim yillikni «qishloq xo'jaligi mahslotlari» ulushlar ko'rinishi bo'yicha, hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi statistik ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. 1-diagramma.



1-diagramma. Qishloq xo'jaligi mahslotlari ulushlar ko'rinishida

Qishloq xo'jaligi mahslotlari ulushlari bo'yicha quyidagi tahlilni ko'rishimiz mumkin. Respublikamiz hududida Samarqand viloyati ijobiy ko'rsatkichli mahsulot ulushiga ega Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi hududlari nisbatan past ko'rsatkichga ega. Nisbiy ko'rsatkichlar har xil shakllarda ifodalanadi. Nisbiy ko'rsatkichlarni turli tartibda taqqoslash yo'li bilan olish mumkin. Birinchi tartibli taqqoslashlarda bevosita hodisalar, ularning belgi qiymatlari taqqoslangan bo'lsa, ikkinchi tartibli statistik taqqoslashlar birinchi tartibli taqqoslash natijalariga asoslanadi, ya'ni bu holda ular bir-biri bilan solishtiriladi. Ikkinchi tartibli taqqoslashlar natijasida vujudga keladigan nisbiy ko'rsatkichlar ommaviy hodisa rivojlanish jarayonlarining yangi qirralarini ochish tahlilni chuqurlashtirib voqyelikning ich-ichidagi munosobatlarni o'rganish uchun xizmat qiladi. Dinamika nisbiy ko'rsatkichlari - bu turli vaqt davrlariga tegishli ko'rsatkichlar nisbati hosilasidir. Nisbiy ko'rsatkichlarni boshqa guruhi bir obyekt (hodisa) ga tegishli turli belgilarning o'zaro nisbatlarini ta'riflaydi. Odatda ular intensivlik nisbiy ko'rsatkichlari deb yuritiladi va o'rganilayotgan obyektlarning ikkilamchi belgilarini umumlashtiradi. Ayrim hollarda bu belgilarni sifat belgilari deb ham atashadi. Mehnat unumdorligi darajasi, iqtisodiy o'sish darajasi, aholi zichligi, moddiy va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi (mahsuldorligi) va hokazo sifat belgilarini o'lchash uchun to'g'ri va teskari ko'rsatkichlardan foydalanamiz.

Xulosa



Demak, statistik ko'rsatkichlarda: ko'rsatkichlarning nomi (voqeа – hodisalar, ob'yektning nomi), ularning qachon, qayerda bo'lganligi, o'lchov birligi va raqamda ifodalangan voqeа – hodisaning miqdori bo'lar ekan. Ijtimoiy va iqtisodiy hodisalar, jarayonlar tegishli ko'rsatkichlarda ifodalananadi. Bu ko'rsatkichlar turli xil miqdorlarda, ma'lumotlarda berilib, hujatlarda qayd qilinadi. Statistik kuzatish natijasida miqdorlar yig'ilib, tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlanib, o'r ganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006.
3. Теория статистики. Учебник. Под ред. Р.А.Шмойловой. – М.: Финансы и статистика, 2005
4. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.
5. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (II) Compounds Based on Acylhydrazone of Aroyltrifluoracetyl methanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.
6. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
7. M.Z. Kuvatova, Sh.A. Turdiyeva, R.R. Kochkarova. (2023). USE OF VENN DIAGRAM AND NETWORK METHOD IN TEACHING THE TOPIC OF "IMPORTANT CLASSES OF INORGANIC COMPOUNDS" TEACHING METHODOLOGY IMPROVEMENT. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/223>
8. Gulizahro, T., Sarvinoz, B., Husniddin, M., Shahzod, S., & Muyassar, I. (2022). BOZOR AGRO IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLAR SHAROITIDA HAMKORLIK TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 804-807.
9. Xudayberdiev U.X., Xoliqulov A.N., Turdibekov YU.I. Statistika. O'quv uslubiyiqo'llanma. Samarqand, SamISI, 2012.
11. Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., & Маматкулова, М. шелковых волокон/. Монография.- Гулистан.- "Ziyo nashr-matbaa" XK, 2022г.-148с.
12. Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., Негматов, С. С., & Негматова, М. Н. (2021). Улучшения характеристических свойств на натуральном шелке в процессе переработки с использованием модификатора. Universum: технические науки, (10-4 (91)), 73-78.
13. Шеркулова, Н. Р., & Давлатов, Р. М. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СПОСОБА МОДИФИКАЦИИ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА ШЕЛКА. Universum: технические науки, (10-4 (91)), 79-85.
14. Кабилова, Д. С., Шеркулова, Н. Р., & Базарбаева, Г. Г. (2020). Реализация продукции-показатель оптимального планирования производства. In Исследования молодых ученых (pp. 15-17).